



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 210 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitara Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiya o'quvchilarining o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	



Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
Tasbolatova Yeliza Yesey qizi	

KO'P MADANIYATLI KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MODELINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY VA PEDAGOGIK MEKANIZMLARI VA KUTILGAN NATIJALARI

Vasilyeva Elmira Raisovna

Andijon davlat texnika instituti 2-bosqich mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim oluvchilarda ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalari yoritilgan. Ko'pmadaniy kompetentlik zamonaviy ta'lim jarayonida turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, madaniy xilma-xillikni anglash, tolerantlik, ijtimoiy hamkorlik va madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim shaxsiy-kasbiy sifat sifatida qaraladi. Maqolada ko'pmadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni mazmuniy, tashkiliy, metodik, kommunikativ va baholash mexanizmlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim, madaniyatlararo muloqot vaziyatlari, hamkorlikda o'qitish hamda refleksiv baholash imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli ta'lim oluvchilarda madaniy ong, ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativ moslashuvchanlik va madaniyatlararo hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ko'pmadaniy kompetentlik, madaniyatlararo muloqot, tashkiliy-pedagogik mexanizm, interaktiv ta'lim, tolerantlik, madaniy xilma-xillik, kompetensiyaviy yondashuv, hamkorlikda o'qitish, refleksiv baholash, ta'lim modeli.

Abstract: This article examines the organizational and pedagogical mechanisms and the expected outcomes of implementing the model for the formation of multicultural competence among learners. Multicultural competence is regarded as an important personal and professional quality that enables effective communication with representatives of different cultures, promotes understanding of cultural diversity, tolerance, social cooperation, and intercultural communication in the modern educational process. The article analyzes the development of multicultural competence through content-related, organizational, methodological, communicative, and assessment mechanisms. It also substantiates the necessity of using interactive teaching methods, project-based activities, problem-based learning, intercultural dialogue situations, collaborative learning, and reflective assessment in the educational process. The findings demonstrate that the proposed model contributes to the development of learners' cultural awareness, social responsibility, communicative flexibility, and intercultural cooperation skills.

Key words: multicultural competence, intercultural communication, organizational and pedagogical mechanism, interactive learning, tolerance, cultural diversity, competency-based approach, collaborative learning, reflective assessment, educational model.

Аннотация: В данной статье рассматриваются организационно-педагогические механизмы и ожидаемые результаты реализации модели формирования поликультурной компетентности обучающихся. Поликультурная компетентность рассматривается как важное личностное и профессиональное качество, обеспечивающее эффективное общение с представителями различных культур, развитие понимания культурного многообразия, толерантности, социального взаимодействия и межкультурной коммуникации в современном образовательном процессе. В статье анализируется процесс развития поликультурной компетентности на основе содержательных, организационных, методических, коммуникативных и оценочных механизмов. Также обосновывается необходимость использования в образовательном процессе интерактивных методов, проектной деятельности, проблемного обучения, ситуаций межкультурного диалога, совместного обучения и возможностей рефлексивного оценивания. Результаты исследования показывают, что модель формирования поликультурной компетентности способствует развитию у обучающихся культурной осведомленности, социальной ответственности, коммуникативной гибкости и навыков межкультурного сотрудничества.

Ключевые слова: поликультурная компетентность, межкультурная коммуникация, организационно-педагогический механизм, интерактивное обучение, толерантность, культурное многообразие, компетентностный подход, совместное обучение, рефлексивное оценивание, образовательная модель.



KIRISH

Globallashuv, xalqaro akademik almashinuv, migratsiya jarayonlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim oluvchilarda ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida turli millat, til, din, madaniyat va ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan shaxslar birgalikda ta'lim olmoqda. Bunday sharoitda ta'lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki madaniyatlararo tushunishni, o'zaro hurmatni, tolerantlikni va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yo'naltirilishi zarur.

UNESCO tomonidan ilgari surilgan global fuqarolik ta'limi konsepsiyasida ta'lim oluvchilarda mahalliy, milliy va global darajadagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni anglash, madaniyatlararo muloqot hamda mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilanadi ^[1]. Ushbu yondashuv ko'pmadaniy ta'limning nazariy-metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, UNESCOning Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives nomli qo'llanmasi global fuqarolik ta'limini rasmiy va norasmiy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish bo'yicha pedagogik yo'riqnoma sifatida ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'pmadaniy ta'lim nazariyasining rivojlanishida J. Banksning ishlari muhim o'rin tutadi. U multikultural ta'limni ta'lim mazmunini boyitish, bilimlarni madaniy kontekstda shakllantirish, stereotip va kamsitishlarni kamaytirish, teng imkoniyatli pedagogikani tashkil etish hamda ta'lim muassasasining madaniy muhitini demokratlashtirish jarayoni sifatida izohlaydi ^[2]. Banks tomonidan ajratilgan besh asosiy yo'nalish – content integration, knowledge construction, prejudice reduction, equity pedagogy hamda empowering school culture – ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatlararo kompetentlik masalasi D. Deardorff tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Uning fikricha, madaniyatlararo kompetentlik shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va mos muloqot qila olishi, ochiqlik, hurmat, moslashuvchanlik hamda refleksiv fikrlash sifatlariga ega bo'lishi bilan belgilanadi ^[3].

Deardorffning 2006-yildagi tadqiqoti oliy ta'lim muassasalarida xalqaro ta'lim natijasi sifatida madaniyatlararo kompetentlikni aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, ushbu kompetentlikni baholash metodlari bo'yicha xalqaro ekspertlar fikrlarini umumlashtirgan. M. Byram esa madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikni til, madaniyat, ijtimoiy tajriba va kommunikativ xulq-atvorning o'zaro bog'liqligi asosida tahlil qiladi. Uning yondashuviga ko'ra, ta'lim oluvchi boshqa madaniyat vakili bilan muloqotda nafaqat til vositalaridan foydalinishi, balki madaniy ma'nolarni anglash, solishtirish, baholash hamda o'z munosabatini bildirish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim ^[4]. Shu jihatdan Byramning modeli ko'pmadaniy kompetentlikning kommunikativ va refleksiv komponentlarini asoslashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli samarali bo'lishi uchun u faqat nazariy ma'lumotlarni berish bilan cheklanmasligi kerak. Mazkur model ta'lim mazmuni, metodlari, o'qituvchi va talaba hamkorligi, madaniyatlararo muloqot vaziyatlari, loyihaviy faoliyat, baholash mezonlari hamda refleksiya jarayonlarini qamrab olgan yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi zarur.

Ayniqsa, oliy ta'lim sharoitida ko'pmadaniy kompetentlikni rivojlantirish ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy faolligi va xalqaro akademik muhitga moslashuvi bilan bevosita bog'liq. Mazkur maqolaning maqsadi ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu model asosida kutilayotgan pedagogik natijalarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot doirasida mazkur modelning tashkiliy, mazmuniy, metodik, kommunikativ, diagnostik va refleksiv mexanizmlari tahlil qilinadi. Tashkiliy mexanizm ta'lim muassasasida ko'pmadaniy muhitni yaratish, talabalarning madaniy xilma-xilligini hisobga olish hamda guruhli va hamkorlikdagi faoliyatni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Mazmuniy mexanizm o'quv dasturlari va fan mavzulariga madaniyatlararo komponentlarni kiritish, turli madaniyatlar tajribasini solishtirish hamda o'quv materiallarini ijtimoiy-madaniy kontekstda yoritishni nazarda tutadi. Metodik mexanizm esa interaktiv metodlar, keys-stadi, munozara, loyiha asosida o'qitish, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kommunikativ mexanizm ta'lim oluvchilar o'rtasida muloqot madaniyatini rivojlantirish, turli fikr va qadriyatlarni hurmat qilish hamda madaniyatlararo dialogni tashkil etish bilan bog'liq. Diagnostik-baholash mexanizmi ko'pmadaniy kompetentlikning kognitiv, aksiologik, kommunikativ va faoliyatli komponentlarini aniqlashga xizmat qiladi. Refleksiv mexanizm esa talabalarning o'z tajribasini tahlil qilish, madaniyatlararo vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini baholash hamda shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Shunday qilib,

ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim oluvchilarni turli madaniy muhitlarda faol, mas'uliyatli va samarali muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari aniqlashtirildi va ularning ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish faqat alohida mavzularni o'qitish yoki madaniyatlararo ma'lumotlarni berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, guruhdagi kommunikativ muhit, baholash mezonlari va refleksiv faoliyatni o'zaro bog'liq holda tashkil etishni talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelining asosiy tashkiliy-pedagogik mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilandi: tashkiliy muhitni yaratish, ta'lim mazmunini ko'pmadaniy komponentlar bilan boyitish, interaktiv metodlardan foydalanish, madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini tashkil etish, refleksiv-baholash faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy hamkorlik tajribasini rivojlantirish. Birinchi natija sifatida ko'pmadaniy kompetentlikni rivojlantirishda tashkiliy muhit mexanizmining muhim o'rin tutishi aniqlandi. Bunda ta'lim muassasasida turli madaniyat, millat, til va ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun ochiq, qo'llab-quvvatlovchi va hamkorlikka asoslangan pedagogik muhit yaratiladi. Bunday muhit talabalarida o'zaro hurmat, bag'rikenglik, madaniy farqlarga nisbatan ijobiy munosabat hamda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi natija sifatida mazmuniy mexanizm ishlab chiqildi. Ushbu mexanizm o'quv fanlari mazmuniga madaniyatlararo muloqot, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy xilma-xillik, tolerantlik hamda ijtimoiy hamkorlikka oid materiallarni kiritishni nazarda tutadi. Bu orqali ta'lim oluvchilar turli madaniy tajribalarni taqqoslash, ularning umumiy va farqli jihatlarini anglash hamda madaniyatlararo vaziyatlarga xolis yondashish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Uchinchi natija sifatida metodik mexanizm asoslandi. Tadqiqot davomida ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirishda an'anaviy ma'ruza usullari bilan bir qatorda interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar, munozaralar, guruhli ishlar va treninglardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, madaniyatlararo vaziyatlarni tahlil qilishga qaratilgan keyslar ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash, muloqotga kirishish hamda muammoni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. To'rtinchi natija sifatida kommunikativ mexanizmning ahamiyati ochib berildi. Ko'pmadaniy kompetentlik madaniyatlararo muloqot jarayonida shakllanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida turli fikrlarni tinglash, o'z pozitsiyasini asoslash, boshqalarning qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, dialogga kirishish hamda kelishuvga erishish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Kommunikativ mexanizm ta'lim oluvchilarda ijtimoiy moslashuvchanlik va madaniyatlararo hamkorlik madaniyatini shakllantiradi. Beshinchi natija sifatida diagnostik-baholash mexanizmi taklif etildi. Ushbu mexanizm ko'pmadaniy kompetentlikning shakllanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Baholash jarayonida ta'lim oluvchilarning madaniy bilimlari, tolerantlik darajasi, madaniyatlararo vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati, kommunikativ faolligi, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi hamda refleksiv fikrlashi inobatga olinadi. Baholash mezonlari kognitiv, aksiologik, kommunikativ va faoliyatli komponentlar asosida belgilanadi.

Oltinchi natija sifatida refleksiv mexanizmning zarurligi aniqlandi. Refleksiya ta'lim oluvchiga o'z madaniy qarashlari, muloqot tajribasi, boshqa madaniyat vakillariga munosabati hamda shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini anglash imkonini beradi. Refleksiv topshiriqlar, esselar, portfoliolar, muhokama kundaliklari va o'z-o'zini baholash varaqalari ko'pmadaniy kompetentlikni mustahkamlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari asosida ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb topildi: motivatsion-tayyorlov bosqichi, mazmuniy-anglash bosqichi, interaktiv-kommunikativ bosqichi, amaliy-faoliyat bosqichi hamda refleksiv-baholash bosqichi.

Motivatsion-tayyorlov bosqichida ta'lim oluvchilarda madaniyatlararo muloqotga qiziqish, boshqa madaniyat vakillariga hurmat va o'z madaniy tajribasini anglash ehtiyoji shakllantiriladi.

Mazmuniy-anglash bosqichida talabalar ko'pmadaniy ta'lim, madaniy xilma-xillik, tolerantlik hamda madaniyatlararo kommunikatsiya haqidagi nazariy bilimlarni egallaydilar.

Interaktiv-kommunikativ bosqichda ta'lim oluvchilar munozaralar, keyslar, guruhli ishlar va rolli vaziyatlar orqali o'zaro muloqotga jalb etiladi.

Amaliy-faoliyat bosqichida madaniyatlararo loyihalar, taqdimotlar, tadqiqot topshiriqlari hamda ijtimoiy tashabbuslar amalga oshiriladi.

Refleksiv-baholash bosqichida esa o'z-o'zini tahlil qilish, xulosa chiqarish va kompetentlik darajasini baholash ishlari olib boriladi.

Tadqiqot davomida modelni amalga oshirish natijasida kutiladigan pedagogik natijalar ham aniqlashtirildi. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilarda madaniy xilma-xillikni anglash, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, tolerantlik, empatiya, ijtimoiy hamkorlik, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish, madaniyatlararo muhitga moslashish hamda refleksiv fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, ko'pmadaniy kompetentlikni shakl-



lantirish modeli ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki turli madaniy, ijtimoiy va kommunikativ muhitlarda samarali faoliyat yuritish qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelining samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarga bog'liq: o'qituvchining ko'pmadaniy ta'limga metodik tayyorgarligi, ta'lim mazmunining madaniyatlararo komponentlar bilan boyitilishi, interaktiv metodlardan tizimli foydalanilishi, guruhda sog'lom kommunikativ muhit yaratilishi, baholash mezonlarining aniq belgilanishi hamda refleksiv faoliyatning muntazam tashkil etilishi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli ta'lim oluvchilarda madaniy ong, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy hamkorlik va kommunikativ moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Mazkur modelni ta'lim jarayoniga izchil joriy etish orqali ta'lim oluvchilarni ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida faol, mas'uliyatli va samarali muloqotga tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modelini amalga oshirish ta'lim jarayonida maxsus tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va izchil qo'llashni talab etadi. Ushbu mexanizmlar ta'lim mazmunini madaniyatlararo kontekstda boyitish, interaktiv hamda hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish, madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, shuningdek, kompetensiyaviy natijalarni baholash bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli quyidagi asosiy natijalarga olib keladi:

- ta'lim oluvchilarda madaniy xilma-xillikni anglash kuchayadi;
- boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyati rivojlanadi;
- stereotip va kamsitishlarga nisbatan tanqidiy munosabat shakllanadi;
- tolerantlik, empatiya hamda ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalari mustahkamlanadi;
- ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy moslashuvchanligi ortadi.

Modelning samaradorligi o'qituvchining metodik tayyorgarligi, ta'lim muassasasining ochiq va qo'llab-quvvatlovchi madaniy muhiti, o'quv materiallarining ko'pmadaniy mazmuni, shuningdek, talabalarni real madaniyatlararo vaziyatlarga jalb etish darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida ko'pmadaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, loyihalar, muhokamalar, guruhli ishlar hamda refleksiv topshiriqlarni tizimli tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ko'pmadaniy kompetentlikni shakllantirish modeli ta'lim oluvchilarni nafaqat bilimli mutaxassis, balki turli madaniyat vakillari bilan ochiq muloqot qila oladigan, ijtimoiy mas'uliyatli, tolerant va kommunikativ jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu modelni tajriba-sinov asosida baholash, ko'pmadaniy kompetentlik mezonlari va indikatorlarini aniqlashtirish hamda turli ta'lim yo'nalishlari uchun moslashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2015.
2. Banks J. A. Multicultural Education: Development, Dimensions, and Challenges. Phi Delta Kappan, 1993, 75(1), 22–28.
3. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization. Journal of Studies in International Education, 2006, 10(3), 241–266. DOI: 10.1177/1028315306287002.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
5. Banks J. A. An Introduction to Multicultural Education. 5th ed. Boston: Pearson, 2014.
6. Bennett M. J. Basic Concepts of Intercultural Communication: Selected Readings. Boston: Intercultural Press, 1998.
7. Deardorff D. K. The SAGE Handbook of Intercultural Competence. Thousand Oaks: SAGE Publications, 2009.
8. UNESCO. Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework. Paris: UNESCO, 2013.
9. Nieto S. Affirming Diversity: The Sociopolitical Context of Multicultural Education. 6th ed. Boston: Pearson, 2012.
10. Gay G. Culturally Responsive Teaching: Theory, Research, and Practice. 2nd ed. New York: Teachers College Press, 2010.
11. Васильева Э. Р., Гилязетдинов Р. А., Марданов Р. Ф., Самигуллин Э. Ф. Поликультурная среда как фактор успешного развития личности студентов технического университета // Педагогический журнал. – 2020. – Т. 10. – № 6А. – С. 103–113.
12. Vasilyeva E. R., Gilyazetdinov R. A., Mardanov R. F. Role of Multicultural Education in Institutions of Higher Learning: Global Perspective // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. 2022. Vol. 125. P. 1054–1059. DOI: 10.15405/epsbs.2022.03.125.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.